

TEKNOLOGIYA FANINI O`QITISHDA ILG`OR PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Mardonov Ruslanjon Boymurod o`g`li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Texnologik ta`lim yo`nalishi

O`qituvchisi

Dovranova Husniobod Nurbek Qizi

Tel nomer: +998973105771

Gmail: mruslanjon1595@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Texnologik ta`lim yo`nalishi

Talabasi

Tel nomer: +998981078995

Gmail: dovranovahusniobod8@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab va institutda texnologiya fanini o`qitishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o`quvchi yoshlarda texnologik va texnik g`oyalar, ijodkorlikni shakillantirish mavzusi yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Texnologiya fani, ilg`or pedagogik texnologiyalar, intilliktual loyihalar, ijodkorlik, ixtiro.*

Аннотация: *В данной статье описано использование передовых педагогических технологий при преподавании технологии в школах и институтах, формирование технико-технических представлений и творческих способностей у младших школьников.*

Ключевые слова: *Технологическая наука, передовые педагогические технологии, интеллектуальные проекты, творчество, изобретательство.*

Abstract: *This article describes the use of advanced pedagogical technologies in the teaching of technology in schools and institutes, the formation of technological and technical ideas and creativity in young students.*

Key words: *Technological science, advanced pedagogical technologies, intellectual projects, creativity, invention.*

Pedagogik texnologiya nima?-texnika resurslari, odamlar va ularning o`zaro ta`sirini hisobga olgan holda ta`lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo`yuvchi o`qituvchi va bilimlarni o`zlashtirishning hamma jarayonlari, yaratish, qo`llash va aniqlashning tizimli metodi. (YUNESKO)

Bugungi kunda texnologiya shiddat bilan rivojlanib bormoqda. XXI asr texnologiyalar asri. Shunday ekan bo`lg`usi pedagoglardan yana ham yuksak marralarni ko`zlashini fan, texnika, texnologiya borasida yangiliklar, ilg`or g`oyalar, ixtirolar qilishlari talab etilmoqda. Ayni vaqtda mazkur talablarni bajarish orqali Texnologiya faniga ulkan hissa qo`shib uni samarali o`qitishga erishish mumkin.

Texnologiya fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari quyidagilar:

-ilg'or pedagogik texnologiya jarayonlarini oldindan loyihalash.

-beriladigan ilg'or pedagogik texnologiyalardan belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish.

-texnologiyalarning faolligiga tayangan holda ish olib borish.

-ilg'or pedagogik texnologiyalarning samaradorligini oshirish.

-ilg'or pedagogik texnologiyani rivojlantiruvchi hamda loyiha ta'limiga ustuvorlik berish asosida “Texnologiya” darslarida o'quvchilarni va bo'lajak o'qituvchilarni individual, guruhli yoki jamoaviy muayyan loyihalar bilan ishlash faoliyatiga jalb qilish orqali ularda tashabbuskorlik, kreativlik, tanqidiy fikrlash, loyihalash, modellashtirish sifatlariga etibor qaratish zarur.

Zamonaviy jamiyatda ilg'or pedagogik texnologiyasining strategik yo'nalishi-insonning turli sohalarida maqsadli va mustaqil faoliyat asosida intellektual rivojlanishidir.

Texnologiya fani darslarida maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplar qo'llansa, uning o'ziga xos emas balki, yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli jarayonlarni oddiy o'rganish ob'ekti sifatida emas balki, o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmachilik vositalari, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi.

Texnologiya fanini o'rganish materiallar, ularning xossalarini o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotda juda katta samara beradi.

Pedagogik texnologiya pedagogikaning XIX asrning 2-yarmida rivojlanadi va fanga kirib keladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'at bilan boshqarishdir.

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi.(M.V.Clarin)

-Ta'lim texnologiyasi-didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi (M.Chorshanov)

Hozirgi kunda ilg'or pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratish va dars jarayonida ulardan foydalanishga nisbatan aytiladi va bundan tashqari ta'lim jarayonini isloh etish, yangicha shakl, usul, vositalar asosida qurish, boshqarish va tashkil etishning mexanizmi va loyihasidir.

Ilg'or pedagogika texnologiyasi bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gegeinik, mafkuraviy, huquqiy, me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Ilg`or pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarning falsafiy jihatdan to`g`ri yo`nalishda bo`lishini ta`minlashga xizmat qiladi. Ilg`or pedagogik texnologiyaning falsafiy yo`nalishi, uning to`g`ri yoki noto`g`riligini, jamiyatning ma`lum maqsadlariga muvofiqligini va zidligini ko`rsatadi.

Ilg`or pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta`lim-tarbiya qoidalariga va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Ilg`or pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to`g`ri bo`lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Ilg`or texnologiyaning pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqib bunda, pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni, sharti, usullari, vositalari, pedagogik jarayonni tashkil qilinishi, olib borilishi, o`quv mavzu rejalar va kabilar ilmiy jihatdan to`g`ri bo`lishi ta`minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o`qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”.2019
2. Matlab Tilavova “Mehnat va uni o`qitish metodikasi”. Toshkent. “Turon Zamin Ziyο”. 2017.
3. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P, Satbayeva “Mehnat va uni o`qitish metodikasi” Darslik . T.; TDPU.2015-yil.
4. Avlayev A.U, Jo`rayeva, S.P Mirzayeva “Ta`lim metodlari” o`quv- uslubiy qo`llanma, “Navro`z nashriyoti”, Toshkent -2017
5. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o`qitish metodikasi” O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.
6. <http://www.iste`dod.uz>
7. <http://www.pedagog.uz>
8. <http://www.ziyonet.uz>